
Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama etildi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 5 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axboroti haqida"gi SQ-596-IV-son Qaroriga muvofiq oila-turmush doirasidagi nizolar oqibatida sodir etilayotgan har bir og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni taxlil qilish, qayd etilgan jinoyatlarni yuzaga keltirayotgan sabab va shart-sharoitlarni o'rganish, ularni bartaraf etish va kelgusida oldini olish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kiritilgan edi. Shahrimizdagi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining faollar zalida o'tkazilgan yig'ilishda ana shunday masalalar amaliy misollar bilan muhokama etildi.

O'tkazilgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burxanov, qo'mita raisi o'rinbosari Tolibjon Madumarov, viloyat hokimi o'rinbosari Fayzullo Qosimovlar ishtirok etishdi.

Shuningdek yig'ilishda viloyat prokuraturasi, ichki ishlari, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi rahbariyati va vakillari, xalq deputatlari viloyat va shahar Kengashlari deputatlari, shahar sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga aloqador tashkilotlar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ham qatnashdilar.

Yig'ilishda shaharda jinoyatchilik va ajrimlarning oldini olish, oilaviy nizolarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati muhokama etildi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar ham ko'rsatib o'tildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-13 19:25:11